

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/04.10.2023.T.66.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YULDASHEV FAXRIDDIN SHAROFIDDIN O‘G‘LI

TRANSPORT VOSITALARI HARAkatIDAN HOSIL BO‘LGAN
VIBRATSIYA TO‘LQINLARI DARAJASINI BAHOLASH VA ULARDAN
HIMOYA QILISH USULLARI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

UDK: 539.3; 699.842

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Technical Sciences**

Yuldashev Faxriddin Sharofiddin o'g'li

Transport vositalari harakatidan hosil bo'lgan vibratsiya to'liqlari darajasini baholash va ulardan himoya qilish usullari.....5

Юлдашев Фахриддин Шарофиддин угли

Оценка уровня вибрационных волн создаваемые транспортными средствами и способы защиты от них.....21

Yuldashev Fakhriddin Sharofiddin ugli

Assessment of the level of vibration waves generated by the movement of transport vehicles and methods of protection against them41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/04.10.2023.T.66.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YULDASHEV FAXRIDDIN SHAROFIDDIN O'G'LI

**TRANSPORT VOSITALARI HAKKATIDAN HOSIL BO'LGAN
VIBRATSIYA TO'LQINLARI DARAJASINI BAHOLASH VA ULARDAN
HIMOYA QILISH USULLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan–2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4808 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan Davlat Texnika Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.namdtu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirsaidov Mirziyod

O'zR FA akademigi, texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarov Ismoil Ibrohimovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Karimov Abdusamat Ismonovich

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti

Dissertatsiya himoyasi "Namangan Davlat Texnika Universiteti" huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.10.2023.T.66.06 raqamli ilmiy kengashning **2025 yil «28» avgust soat 14⁰⁰ dagi** majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.(0569) 228-76-71, faks: (0569) 228-76-75, e-mail: info@namdtu.uz, Namangan Davlat Texnika Universiteti № 6 – binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Namangan Davlat Texnika Universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (51-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160103, Namangan sh., I.Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (69) 234-14-85).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil "14" avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil "14" avgustdagi №2 raqamli reestr bayonnomasi)



P.J. Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Sh. Mirzaumidov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi, t.f.d.(DSc), dotsent

A.A. Mamaxanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash

huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda qurilish sanoatining barcha rivojlanish bosqichlarida inson hayoti uchun xavfsiz yashash muhitini yaratish ustuvor vazifa bo'lib kelgan. Texnika, transport va qurilish sohalarining jadal rivojlanishi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vibratsiya to'liqlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, va ulardan himoyalaniş muammosi eng muhim masalalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda vibratsiya xavfini kamaytirish masalasi samarador usullar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali hal qilinmoqda. Shu jihatdan, transport vositalari harakatidan hosil bo'ladigan vibratsiyaning insonlarga salbiy ta'sirini chuqur tadqiq qilish va zamonaviy qurilish sanoatida vibratsiyaga bardoshli texnologiyalar va himoya vositalarini qo'llash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda transport vositalari harakatidan hosil bo'lgan vibratsiya ta'sirini kamaytirish, inson salomatligini muhofaza qilish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni yumshatishga qaratilgan zamonaviy qurilish materiallari, vibratsiyani yutuvchi qatlamlar va gruntida tebranishlar darajasini nazorat qilish texnologiya va usullarini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, transport vositalari harakati natijasida hosil bo'lgan vibratsiyaning grunt orqali tarqalish jarayonini o'rganish hamda bu tebranishlarni sanitariya me'yorlariga muvofiq darajalargacha pasaytirish, elastik to'liqlarning gruntga ko'rsatadigan dinamik ta'sirini baholash va nazorat qilish usullarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, ayniqsa avtomobil va temiryo'llarga yaqin joylashgan bino va inshootlarning zararli vibratsiya ta'siriga bardoshlilikini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi PF-60-sonli Farmonida, jumladan "... aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish..." vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, ya'ni zararli tebranishlarni sanitar me'yorlar darajasigacha kamaytirish uchun gruntida joylashtirilgan so'ndiruvchi konstruksiyalarning geometrik o'lchamlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholash, tebranishlarni kamaytirishda transheyalarning chuqurligiga bog'liqligi, temir yo'l polotnosidan bino va inshootlargacha bo'lgan oraliqdagi tebranishlar darajasini pasaytirish uchun quriladigan konstruksiyani joylashtirishning eng maqbul masofasini aniqlash bo'yicha samarali yechimlarni ishlab chiqish, transport vositalari harakatidan hosil bo'ladigan vibratsiya to'liqlari darajasini baholash va ulardan himoya qilish usullarini yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4794-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash

¹ [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida" gi Farmon.](#)

tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, shuningdek, "Geotexnika va gruntlar mexanikasi" sohasi bo'yicha mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarning bajarilishiga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hissa qo'shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlantirishning IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan. **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

Dunyo olimlari vibratsiyaning gruntlar orqali tarqalishi va ularning inshootlar hamda inson salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytirish masalalarini chuqur o'rganmoqdalar. Jumladan, R. Woods, E. Selebi, M. Kim, O. Yoshima, S. Fransua, J. Leang, S. Axmad, T.M. Al-Xusayni, Yu. Yan, X. Xung, B. Chjen, L. Szyanven, G.D. Bukevalas, A.G. Papadimitriu kabi olimlar vibratsiya to'liqlarining tarqalishi, ularni modellash va samarali himoya usullarini ishlab chiqish ustida faoliyat olib bormoqdalar. Rossiya olimlari ham vibratsiya ta'sirlarini baholash borasida muhim natijalarga erishganlar. O.A. Shutov va A.B. Ponomarevlar transport vibratsiyalarining poydevorlarga ta'sirini hisoblash modellarini ishlab chiqqan. V.A. Ilichev, O.Ya. Shexter, M.A. Dashevskiy, M.N. Golubsova va Yu. Bulanovlar metropoliten poyezdlari harakati natijasidagi grunt tebranishlarini chuqur tahlil qilganlar. O'zbekiston Respublikasida turli yillarda inshootlarning zilzilabardoshlik darajasini baholash, vibratsion ta'sirlarni tahlil qilish va ularni kamaytirish sohalaridagi ilmiy izlanishlar T.R. Rashidov, M.M. Mirsaidov, T.Sh. Shirinulov, G.X. Xojmetov, A.A. Ishanxodjayev, B. Mardonov, Ya.N. Muborakov, Sh.S. Yuldashev, P.J. Matkarimov, A.Z. Xasanov, A.F. Kolos, Z.Ye. Mirsalixov kabi yetuk olimlar tomonidan olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar doirasida seysmodinamikaning nazariy asoslari ishlab chiqilib, yerosti tonnellarida tebranish ta'sirlarini baholash, metropoliten poyezdi harakati natijasidagi grunt vibratsiyalarini tahlil qilish, gruntlarning fizik-mexanik xossalari va konstruktiv elementlar bilan o'zaro ta'siri, shuningdek, yuqori tezlikdagi poyezdlar harakatidan kelib chiqadigan vibratsiyalarni o'rganish bo'yicha muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda turli gruntlarda va manbaga yaqin joylashgan binolarda vibratsiyalarning tarqalishi hamda grunda ushbu vibratsiyalarni so'ndirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, gruntlarning fizik-mexanik xossalari, namlik darajasi, zichligi va reologik holati vibratsiya to'liqlarining intensivligi va tarqalish yo'nalishiga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, ularni samarali so'ndirish uchun optimal konstruktiv yechimlar tanlash masalalari hozirgi kungacha to'liq yoritilmagan. Shu sababli,

ushbu yo‘nalishda chuqurlashtirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish zaruriyati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Namangan davlat texnika universiteti «Mexanika» kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ravishda «Vibratsiyaning zararli ta’siridan turar joy va sanoat binolarini himoya qilish va yer usti hamda yer osti inshootlarining zilzilabardoshligini materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi transport vositalari harakatidan hosil bo‘ladigan vibratsiya to‘lqinlari darajasini gruntning reologik xususiyatlari va dinamik yukning turiga bog‘liq ravishda baholashdan hamda ulardan turli xil transheyalar yordamida himoya qilish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

transport vositalaridan turli reologik xususiyatlarga ega bo‘lgan gruntli asoslarda tarqaladigan vibratsiya darajasini chekli o‘lchamga ega bo‘lgan gruntli asosning matematik modelini ishlab chiqish va asosdagi tebranish darajasini baholash;

transport vositalaridan tarqaladigan vibratsiyalar darajasini aniqlash bo‘yicha ishlab chiqilgan matematik modelni suv bilan to‘yingan gruntli asoslarda sodir bo‘ladigan tebranish jarayonini baholash uchun takomillashtirish;

ishlab chiqilgan modellar asosida vibratsiya to‘lqinlaridan gruntli asosda hosil bo‘ladigan tebranish darajasini gruntlarning turli xil modellari bo‘yicha baholash;

transport vositalari hosil qiladigan asoslardagi vibratsiya to‘lqinlarini kamaytirish uchun quriladigan konstruksiya turlarini tavsiya qilish va ularning samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti. Transport vositalari– ko‘p qatorli avtomagistral, temir yo‘llar, gruntli asos, vibrohimoya ekrani va himoyalananadigan inshootlar kiradi.

Tadqiqot predmeti transport vositalari harakati natijasida gruntlarda yuzaga keladigan dinamik jarayonlar va inshootlar geometriyasining o‘zgarishi natijasida ko‘chish amplitudalari, grunt yuzasidagi tebranishlar parametrlarini (ya’ni: ko‘chishini, tezligini, tezlanishlarini) tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida elastiklik, qovushoq elastiklik va plastiklik nazariyalarining tutash muhitda to‘lqin tarqalish jarayonini tahlil qilish usullari, variatsion prinsip hamda chekli elementlar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

transport vositalaridan turli reologik xususiyatlarga ega bo‘lgan gruntli asoslarda tarqaladigan vibratsiya darajasini chekli fazoda baholash bo‘yicha uch o‘lchovli matematik model ilk bor ishlab chiqilib, uni suv bilan to‘yingan gruntli asoslarda sodir bo‘ladigan tebranish jarayonini baholash uchun takomillashtirilgan;

vibratsiya to‘lqinlarining gruntli asoslarda tarqalish qonuniyatlarini aniqlash uchun gruntning HS Small modeli asosida dinamik deformatsiyaga bog‘liq parametrlarini hisobga olib, elastik yarim fazoda to‘lqin tarqalishi haqidagi masala sonli usulda yechish asosida tarqalayotgan vibratsiyaning glinali gruntlarga nisbatan qattiq qumli gruntlar kuchli so‘ndirish xususiyatga ega ekanligi isbotlangan;

poyezd grunt asosda harakatlanganda temiryo'lga parallel qilib qazilgan transheya gruntdagi tebranish parametrlarini keskin kamaytiruvchi vosita ekanligini elastik yarim fazoda to'lqin tarqalishi haqidagi masalani sonli yechish asosida isbotlanib, transheyaning temiryo'l polotnosiga nisbatan joylashuvining eng samarali optimal masofasi va chuqurligi aniqlangan;

poyezd harakati natijasida temir yo'l yaqinida joylashgan bino qavatlarida hosil bo'ladigan tebranishlar darajasiga bino bilan temir yo'l orasida joylashtirilgan transheyaning ta'sirini aniqlash uchun ilk bor bir jinsli bo'lmagan elastik yarim fazoda to'lqin tarqalish masalasini to'siqni hisobga olgan holda yechib, bu transheyalar binoning barcha qavatlarida sodir bo'ladigan vibratsiya amplitudasini keskin darajada kamaytirishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli reologik xususiyatlarga ega bo'lgan gruntli asoslarda transport vositalaridan tarqaladigan vibratsiya darajasini chekli o'lchamga ega bo'lgan va chegaralariga maxsus shartlar qo'yilgan gruntli asosning matematik modeli va algoritmi ishlab chiqilgan;

transport vositalaridan tarqaladigan vibratsiyalar darajasini baholash uchun ishlab chiqilgan matematik model, suv bilan to'yingan gruntli asoslardagi tebranish jarayonini baholash uchun takomillashtirilgan;

temir yo'ldan tarqaladigan to'lqinning binolarga ta'sirini kamaytirishda transheyalarni loyihalash uchun ishlab chiqilgan hisoblash usuli asosida yaratilgan EHM dasturlariga O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining mualliflik guvohnomalari olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishlab chiqilgan modellarning adekvatligi, masalani differensial va variatsion qo'yilishlarining ekvivalentligi hamda PLAXIS 3D dasturiy majmuasi yordamida olingan natijalarning to'g'riligi test masalasini yechish orqali tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli fizik-mexanik xossalarga ega gruntli asoslarda transport vositalaridan tarqaladigan vibratsiya to'lqinlarining uch o'lchamli matematik modellar orqali baholanishi, bu modellarni suv bilan to'yingan holatlar uchun takomillashtirish, chekli elementlar usuli yordamida yechish, shuningdek, tebranish parametrlarining grunt zichligi, namlik darajasi, deformatsiyalanish xossalari va harakat yo'nalishiga nisbatan o'zgarishini aniqlash orqali tebranish jarayonlarining nazariy qonuniyatlari ilmiy asosda aniqlab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati transport vositalari harakati natijasida gruntli asoslar va binolarda yuzaga keladigan tebranishlarni samarali kamaytirish uchun transheya va himoya ekranlari kabi muhofaza vositalarining konstruktiv xususiyatlari, joylashtirish masofasi va chuqurligi asosida optimal loyihaviy tavsiyalar ishlab chiqilganligi, natijada real inshootlar tebranishdan himoya qilinishi va ularning vibratsiyaga ustuvorligini ta'minlash imkonini beruvchi texnologik yechimlar taklif qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Transport vositalarining harakati natijasida gruntida hosil bo'lgan vibratsiyani kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Ishlab chiqilgan vibratsiyadan himoya qilish usullari transport inshootlari atrofidagi bino va inshootlarni loyihalashda «QISHLOQQURILISHLOYIHA» MCHJ, “Namangan shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi”, “Perspective Project Group” MCHJ larda loyihalash jarayoniga joriy qilingan (Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 08-06/6439-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, transport vositalari harakati ta'sirida qurilayotgan bino va inshootlarda yuzaga keladigan vibratsiyalarning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda amaliy xavfsizlikni oshirish imkoniyatiga erishilgan.

“Temir-yo‘ldan tarqaladigan to‘lqinlarning binolarga ta'sirini kamaytirish transheyalarini loyihalash” va “Ikki izli temir-yo‘llardan bino va inshootlarga vibratsiya to‘lqinlarini ta'siri” bo'yicha tuzilgan EHM dasturlari “KELAJAK –S” xususiy korxonasida amaliyotga joriy qilingan (Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 08-06/6439-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan EHM uchun mo'ljallangan dasturdan loyihalash ishlarida foydalanish, transport inshootlari atrofidagi bino va inshootlarning zararli tebranishlardan himoyalash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Ularning 12 tasi ilmiy maqola bo'lib, shulardan 1 tasi xalqaro va 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan Respublika jurnallarida chop etilgan. Shuningdek, 3 ta EHM uchun dastur Respublika intellektual mulk agentligi ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning hajmi **104** betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligini asoslangan, maqsad va vazifalarni, tadqiqot obyekti va mavzusi tavsiflangan. Muammoning o'rganilganlik darajasi va tadqiqot usuli, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va ularning ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha tadqiqot natijalarini joriy etish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Vibratsiya to‘lqinlarining gruntli asosda tarqalishining nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobining birinchi paragrafda gruntlarda vibratsiya va seysmik to‘lqinlarning tarqalishi hamda ulardan himoya qilish usullariga bag‘ishlangan ishlar bo'yicha muammoning zamonaviy holati tahlil qilingan. Ikkinchi paragrafda turli manbalardan gruntli asoslarda tarqaluvchi

vibratsiya to‘lqinlarini baholash uchun variatsion prinsip asosida matematik modeli Ostrogradskiy-Gamiltonning klassik mexanika prinsipiga asoslanib ishlab chiqilgan va chekli elementlar usuliga asoslangan masalani yechishning asosi ishlab chiqilgan. Uchinchi paragrafda vibratsiya to‘lqinlarining gruntli asoslarda tarqalishining baholash masalasini yechish usuli va algoritmi keltirilgan. To‘rtinchi paragrafda esa ishlab chiqilgan algoritmlar va hisoblash dasturining ishonchliligini tekshirish uchun Nyumark usuli yordamida chiziqli integro-differensial tenglamalar yechilgan va natijalar ma’lum yechimlar bilan taqqoslash orqali baholangan.

Dissertatsiyaning **“Transportlar tarqatadigan vibratsiya to‘lqinlarini gruntli asosning reologik xususiyatlarining hisobga olib baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda to‘lqinlarning gruntli asoslarda tarqalish jarayonlarini to‘g‘ri tasvirlash uchun birinchi navbatda grunt modelini tanlashga e’tibor berish zarur. Statik hisoblashlar uchun qo‘llaniladigan grunt modeli har doim ham dinamik jarayonni baholash uchun mos kelmaydi. Dinamik jarayonlarda gruntning xarakteristik parametrlari molekulyar kuchlarning o‘zgarishi hisobiga o‘zgaradi. Bu ba’zan olingan sonli natijalarning ishonchsizligiga olib kelishi mumkin. Amaliy hisoblashlarda qo‘llaniladigan ba’zi grunt modellarini ko‘rib chiqilgan.

HS small modeli gruntning kichik deformatsiyalardagi tiklanuvchan plastik modifikatsiyasi hisoblanib, gruntning kichik deformatsiyalarda qattiqlikni kamayishini hisobga oladi. Kichik deformatsiyalarda ba’zi gruntlar mexanik deformatsiya vaqtida tiklanish qobiliyatining kamayishini namoyon etadi va gruntning deformatsiyaga bo‘lgan tiklanish diagrammasi mutlaqo chiziqli bo‘lmaydi. Gruntning bu xususiyati *HS small* modelining dinamik jarayonda qo‘shimcha material parametrlari G_0^r va $\gamma_{0.7}$ orqali hisobga olinadi. Parametr G_0^r kichik deformatsiyalardagi siljish modulini anglatadi, $\gamma_{0.7}$ esa boshlang‘ich siljish modulining qiymati 70% gacha kamayganda siljish deformatsiyasini ifodalaydi. Dinamik jarayonlarda qo‘llanilganda, *HS small* modeli materialdagi gisterezisli toliqishini hisobga olish imkonini beradi. Ikkinchi paragrafda Transport vositalari ta’sirida gruntli asoslarda hosil bo‘ladigan vibratsiya to‘lqinlarini baholashda gruntlarning turli fizik-mexanik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda gruntli asoslarda transport vositalari hosil qilgan vibratsiya to‘lqinlarini baholashning asoslari ishlab chiqilgan. Masalani yechishda ChEUni asfalt-beton qoplangan,




1-rasm. Gruntning ko‘chish modulining tiklanish qobiliyatini (G/G_0) ko‘chish deformatsiyasining logarifmiga bog‘liqlik grafigi

avtomobil harakatlanadigan yo‘l qurilgan yarim fazoga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash mumkin emas. Masalani yechishda chekli fazoda joylashgan gruntli asosda bo‘ladigan dinamik jarayonni baholash uchun, fazodan to‘g‘ri parallelepiped shaklidagi chekli bo‘lak ajratib olamiz, ya’ni: vibratsiya to‘lqinlari manbadan 40-50 metr masofada so‘nib ketishini hisobga olgan holda, masalani yarim fazoning bizni qiziqtiruvchi cheklangan sohasida ko‘rib chiqamiz. Yarim fazodan

ajratib olinadi o'Ichami cheklangan parallelepipedning chegaralariga yarim fazoning tashlab yuborilgan qismi ta'sirini almashtirish uchun to'liq energiyasini qaytarmasdan o'tkazib yuboruvchi chegaraviy shartlar qo'yiladi. Aniq masalalarni yechishda asfalt-beton qoplamali grunt asosi modeli sifatida kengligi 100 m, uzunligi 100 m va chuqurligi 20 m o'Ichamlarga ega bo'lgan soha olingan. Grunt tarqaladigan vibratsiya to'liqlarini baholashda yer yuzasidan 20 metr chuqurlikkacha bo'lgan gruntning namlik darajasi ham hisobga olingan (1 - rasm).

Grunt materiallarida sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni tasvirlash uchun gruntning chiziqli kengayishini ifodalovchi munosabatlardan foydalanamiz.



Grunt materiallarida sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni tasvirlash uchun gruntning chiziqli kengayishini ifodalovchi munosabatlardan foydalanamiz.

Shu munosabatlarni e'tiborga olib, chekli elementlar tartibidan foydalanib, shakllantirilgan variatsion prinsiplarga asoslangan matematik model takomillashtirilib,

2-rasm. Uch o'Ichovli cheklangan sistemaning, chekli elementlarga bo'linishi grunt asosidagi transport vositalari hosil qiladigan vibratsiya to'liqlarini baholash uchun quyidagi ko'p sonli ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar tizimi keltirib chiqariladi:

$$[M]\{\ddot{u}(t)\} + [C]\{\dot{u}(t)\} + [K]\{u(t)\} = \{F(t)\} \quad (4)$$

Bu yerda $[K], [M]$ – sistemaning (2-rasm) bikrlilik va massa matritsalarini, $\{u(t)\}, \{\dot{u}(t)\}, \{\ddot{u}(t)\}$ – tugun nuqtalaridagi ko'chish, tezlik va tezlanishlar vektorlari, $[C]$ – dempfer matritsasi, bu yerda grunt ichidagi ichki ishqalanishlar va (1), (2), (3) chegara shartlari hisobga olinadi, $\{F(t)\}$ – vibratsiya manbalari ta'sirida hosil bo'ladigan yuklanishlar vektori.


Yuqori tartibdagi (4) tenglamalar sistemasini yechish uchun Nyumarkning sonli integrallash usuli qo'llaniladi, avtomobillar harakatidan hosil bo'lgan gruntli asosda tarqaladigan vibratsiya to'liqlarining u – ko'chishlarini va v – tezliklarini topish talab qilinadi.

Ushbu masalani yechishda kesib olingan parallelepiped (2-rasm) hajmi 14356 ta tugun bilan 8701 ta noto'g'ri tetraedr shaklidagi chekli elementlarga bo'lingan va (6) tenglamalar tizimining tartibi 43068 ni tashkil qiladi.


Transport vositasining gruntli asoslarda hosil qiladigan vibratsiya to'liqlarini baholash bo'yicha olingan natijalar uchun fazoning quyidagi koordinatalarida: y – transport tizimining harakatlanishi yo'nalishi; x – yo'nalishi bo'yicha gruntli asosning turli nuqtalarida tebranish amplitudalarini kuzatuv nuqtalari; z – yo'nalishi bo'yicha esa tebranish parametrlarining vertikal amplitudlari ko'rsatiladi.

Tebranish amplitudalarining kuzatuv nuqtalari (x) o'qi bo'yicha 10 m, 20 m, 30 m va 40 m masofalarda joylashgan bo'lib, shu nuqtalardagi tebranish parametrlarining qiymatlarini vaqt bo'yicha o'zgarishlari natija sifatida olingan.

3 va 4 –rasmlarda transport harakati davomida har xil gruntli (ya'ni glinali va qattiq qumtoshli gruntli) asosning (x) o'qi bo'yicha turli nuqtalarida vaqt bo'yicha vertikal ko'chish va tezlik amplitudalarini o'zgarishlari keltirilgan. Bu rasmlarda: 10/50/0» degani $x=10$ m, $y=50$ m va $z=0$ m dagi natijani bildiradi; havo rangli natija glinali grunt uchun, qizil rangligi esa qattiq qumtoshli grunt uchun olingan. Bu natijalarning tahlili ko'rsatadiki, transport harakati davomida asosda hosil bo'ladigan vertikal tebranishning ko'chish amplitudalarining so'nishi, glinali gruntlarda qattiq qumtoshli gruntlardagiga nisbatan ancha kichik bo'lishini kuzatishimiz mumkin; transport harakati davomida asosda hosil bo'ladigan vertikal tebranishlari tezlik amplitudalarining so'nishi ham, glinali gruntlarda qattiq qumtoshli gruntlardagi tezlik amplitudasiga qaraganda kamroq bo'ladi.




a) nuqta 20/50/0




b) nuqta 40/50/0

3-rasm. Asos turli xil gruntlardan iborat bo'lganda transport vositasi hosil qilgan vertikal ko'chish amplitudalarining asosni turli nuqtalarida vaqt bo'yicha o'zgarishlari




a) nuqta 10/50/0



b) nuqta 30/50/0

4-rasm. Asos turli xil gruntlarda iborat bo'lganda transport vositasi hosil qilgan vertikal tezlik amplitudalarining asosni turli nuqtalarida vaqt bo'yicha o'zgarishlari

Demak bu olingan natijalardan shunday xulosa qilishimiz mumkin: vibratsiya to'liqlari hosil qilgan gruntli asoslardagi tebranish parametrlarini qattiq qumtoshli gruntlar, glinali gruntlarga qaraganda yaxshi so'ndirishi aniqlandi. Bu esa o'z navbatida qattiq qumtoshli gruntlarda ichki ishqalanishning qiymatini yuqoriligi bilan tushuntiriladi. Bu bobning uchinchi paragrafida Transport vositalari ta'sirida gruntli asoslarda hosil bo'ladigan vibratsiya to'liqlarini grunt suvlarini hisobga olgan holda baholashda Yuk tashuvchi katta vaznli tezyurar poyezdlar ko'pincha gruntida katta vibratsiya hosil qilib, atrof-muhit va ish sharoitlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu masalani yechishda yuqorida takomillashtirilgan matematik model asosida chekli elementlar tartibi yordamida hosil qilingan ko'p sonli ikkinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasi keltirib chiqariladi va bu tenglamalar Nyumark usuli yordamida yechiladi.



5 - rasm. Gruntli asos yuzasida transport harakati yoʻnalishi (y) ga perpendikulyar boʻlgan (x) oʻkidagi kuzatuv nuqtalarini joylashishi


Koʻrib chiqilayotgan masalada yuk tashuvchi transport vositasi harakati natijasida yuzaga keladigan grunt asosdagi vibratsiya darajasini aniqlash zarur. Toʻlqinlarning elastik yarim fazoda tarqalishini koʻrib chiqish masalasi, yuk avtomobilining oʻlchamlari cheklangan boʻlganligi sababli, elastiklik nazariyasining hajmiy masalasi sifatida hal qilinadi. Aniq masalalarni yechishda sistema egallagan soha 31503 ta tugun bilan 19534 ta chekli elementlarga boʻlingan va differensial tenglamalar sistemasining tartibi 94509 ni

tashkil qilgan boʻlib, masalani yechishda grunt quruq va namlanganlik holatlari hisobga olingan, chekli elementlar sifatida notoʻgʻri tetraedrlar tanlangan. Olingan natijalar transport harakat qilgan yoʻnalishga perpendikulyar boʻlgan yoʻnalishning 10 m, 20 m, 30 m va h.k. masofada joylashgan kuzatuv nuqtalardagi (6-rasm, 7-rasm) koʻchish va tezlik amplitudalarini vaqt boʻyicha oʻzgarishlari olingan. Olingan natijalardan koʻrinadiki transport vositasi kuzatuv oʻqiga yaqinlashganda grunt nuqtalarining tebranish amplitudasi eng katta qiymatga ega boʻlib, harakatlanuvchi yuk oʻtib ketishi bilan bu amplituda kamayib, soʻnib boradi. Bu natijani namlangan va namlanmagan gruntlar uchun solishtirib, tahlil qiladigan boʻlsak, koʻrishimiz mumkinki, gruntning namlanishi tebranish amplitudasini biroz oshirib, tebranish chastotasini biroz kamayishiga olib keladi. Buni sababini quyidagicha tushuntirish mumkin, grunt namlanganda uning elastiklik moduli kamayadi, zichligi salgina oshadi. Buni shunday tushuntirish mumkinki, tebranish sodir boʻlayotgan manbadan uzoqlashganimiz sari, gruntli asosning soʻndirish xossasi, ichki ishqalanish toʻlqin amplitudasini sekin asta kamaytirib boradi. Bu olingan natijalardan xulosa qiladigan boʻlsak, aytishimiz mumkinki 3 m chuqurda joylashgan yer osti suvlari, bunday gruntlardagi yoʻlda harakatlanuvchi transport vositasi hosil qilgan tebranish toʻlqinlarining tarqalishiga anchagina taʼsir koʻrsatadi.


Masalan: vibratsiya manbasidan 10 metr masofadagi kuzatish nuqtasida grunt suvlari mavjud boʻlgan holda vibratsiyaning koʻchish amplitudasi ular mavjud boʻlmagan holatga nisbatan maʼlum miqdorga oshgani qayd etilgan. Olingan natijalar koʻrsatdiki, mazkur nuqtalarda vibratsiya toʻlqini hosil qilgan tezlik amplitudalari ham grunt suvlari mavjud boʻlgan holatda anchagina oʻzgaradi. Bu oʻzgarishlarni asosiy sababi namlangan gruntning deformatsiya modulini oʻzgarishi (kamayishi) va gʻovaklarni suv bilan toʻlishi natijasida gruntning tebranish amplitudasi oshishi bilan tushuntirish mumkin.

Lekin tebranish amplitudasi ham chastotasi ham uncha katta boʻlmagan qiymatlarga oshadi. Demak, transport harakati davomida hosil boʻlgan vibratsiya toʻlqinining gruntli asosda paydo qiladigan tebranish amplitudasi, masofa transport harakat yoʻnalishidan uzoqlashgani sari namlangan gruntli asoslarda, namlanmagan gruntlarga nisbatan kattaroq boʻlishi aniqlandi. Buning sababini namlangan

gruntlarda deformatsiya modulini kamayishi, zichlikning oshishi va so'ndirish xususiyatini kamayishi bilan tushuntirish mumkin.




6 - rasm. Namlangan va namlanmagan gruntli asosda harakatlanuvchi transport vositasi «x» o'qi bo'yicha 20 m masofada hosil qilgan tebranish amplitudasining vaqt bo'yicha o'zgarishi



7- rasm. Namlangan va namlanmagan gruntli asosda harakatlanuvchi transport vositasi «x» o'qi bo'yicha 40 m masofada hosil qilgan tebranish amplitudasining vaqt bo'yicha o'zgarishi



To'rtinchi paragrafda temiryo'l poyezdlari harakati natijasida turli grunt asoslarida yuzaga keladigan vibratsiya to'lqinlari hosil qilgan tebranish parametrlarini baholash keltirilgan. Ushbu bo'limda temiryo'l poyezdlari harakati natijasida turli grunt asoslarida yuzaga keladigan vibratsiya to'lqinlari hosil qilgan tebranish parametrlarini baholash masalasini yuqorida ishlatilgan matematik model va hisoblash usuli yordamida uch o'lchovli dinamik masala deb qarab baholanadi. Bu masalalarni yechishda asosning grunti ikki xil bo'lgan hollarini ko'rib chiqamiz. Birinchi holda asos gruntining turi supes, ikkinchi holda lyossimon-suglinka qilib tanlab olinadi. Asos chekli modelining o'lchovlari: eni 200 m, uzunligi 100 m, chuqurligi esa 50 m qilib tanlab olingan. Temir yo'l-asos hisob modeli mavjud normalarga asoslangan holda 8 – rasmda ko'rsatilgandek olingan.



8-rasm. Temiryo'l poyezd yo'li asosining sxemasi

Olingan natijalarda poyezd harakatining turli vaqtlarida har xil gruntlardan (supes, suglinka, loysimon) tashkil topgan asos sirtining (x -o'qi bo'yicha) turli nuqtalarida (10 m dan 100 m gacha bo'lgan masofada) tebranishlardagi ko'chish va tezlik amplitudalarining o'zgarishlari ko'rsatilgan.

9 – rasmda poyezdning turli vaqtlardagi harakati davomida (1 va 2 sekund harakati davomida) supes va loysimon gruntli asos sirtlarda vibratsiya to'lqinlari hosil qilgan tebranishning ko'chish amplitudalarini poyezd yo'liga perpendikulyar bo'lgan asosning (x -o'qi bo'yicha) turli nuqtalaridagi o'zgarishlari keltirilgan.




9 - rasm. Turli xil gruntli asoslarda harakat boshlangandan keyin ma'lum vaqtlardan keyin vertikal ko'chish amplitudalarining x o'qi bo'yicha o'zgarish natijalari

Olingan natijalardan ko‘rinadiki, agar asosning grunti supesdan tashkil topgan bo‘lsa, boshlang‘ich vaqtda tebranish amplitudasi katta bo‘lishiga qaramasdan, supesli gruntda vibratsiyaning ko‘chish amplitudasini masofa bo‘yicha so‘nishi, loysimon gruntdagiga qaraganda ancha yuqori bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Poyezd harakati davomida hosil bo‘lgan vibratsiya to‘lqinlari gruntli asosning turli masofada joylashgan nuqtalarida eng katta so‘nish darajasi supes gruntli asoslarda hosil bo‘lishi aniqlandi. Olingan natijalarning tahlilidan ko‘rish mumkinki, poyezd harakati davomida hosil bo‘lgan vibratsiya to‘lqinini asosning turli nuqtalarida hosil bo‘ladigan tebranish amplitudalari so‘nishi birinchi navbatda gruntning fizik mexanik parametrlariga bog‘lik ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga harakatlanuvchi yuk ta’siri hosil bo‘lgan vibratsiya to‘lqinlarining asosning turli masofalaridagi nuqtalarida hosil qilgan tebranish va tezlik so‘nishi supesli asosda, lyossimon suglinkalik gruntli asosga qaraganda masofa bo‘yicha tezroq so‘nishi sodir bo‘lishi aniqlandi. Demak, supesli gruntning dissipativ (so‘ndirish) xususiyati boshqa gruntlarning so‘ndirish xususiyatiga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Bu o‘z navbatida loyiha ishlarini bajarish jarayonida temir yo‘l qurilish joyidagi gruntning real fizik-mexanik xarakteristikalarini e’tiborga olib loyiha ishlarini bajarishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“Vibroto‘lqin tebranishlaridan himoyalash tizimlarining samaradorligini baholash”** deb nomlangan uchinchi bobda transport vositalari harakati natijasida gruntli asoslarda paydo bo‘ladigan vibratsiya tebranishlari nazariy jihatdan baholanib, asosda hosil bo‘ladigan vibratsiyalardan himoyalash tizimlari taklif qilingan va ularning samarador parametrlari aniqlangan. Shu bobning birinchi paragrafida **“Asosda joylashtiriladigan to‘siq parametrlarini optimallashtirish”** gruntli asosdagi vibratsiya tufayli yuzaga keladigan maksimal ko‘chish amplitudalari, tezliklar va tezlanishlar tahlil qilingan va transheyanning geometrik o‘lchamlariga qarab uning samaradorligini aniqlash ishlari amalga oshirilgan. Shu maqsadda temir yo‘l poyezdlari harakatidan hosil bo‘ladigan vibratsiyaning tarqalish jarayonini tekshirish uchun masala elastiklik nazariyasining yarim fazodagi to‘lqin tarqalish masalasiga keltirilib qaraladi,



10 - rasm. Asosdan ajratib olingan chekli model va uni chekli elementlarga bo‘lish.

Mazkur masalani yechish Plaxis 3D dasturiy kompleksi yordamida amalga oshirilgan. Buning uchun gruntli yarim fazodan o‘lchamlari: kengligi 100 m, uzunligi 100 m va chuqurligi 20 m ni tashkil qiladigan uch o‘lchamli chekli

